



# NAQD PUL MUOMALASI BO'YICHA SHARH

*APREL - 2026*

- UMUMIY PUL TUSHUMLARI VA ULARNING O'SISH SUR'ATLARI
- NAQD VA NAQD PULSIZ TO'LOVLAR O'RTASIDAGI NISBAT
- BANKLAR ORQALI NAQD PUL AYLANMASI HAJMI
- BANK KASSALARI VA BANKOMATLARDAN BERILGAN NAQD PULLAR
- NAQD PULLARNING PUL MASSASIDAGI ULUSHI

Ushbu sharhda naqd pul tushumlari va chiqimlari dinamikasi, banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi, naqd va naqd pulsiz to'lovlar o'rtasidagi nisbat, shuningdek muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi va ularni boshqarish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan.

## Rezyume

Mazkur sharh 2026-yil yanvar-mart oylarida mamlakatda naqd pul muomalasining holati va asosiy rivojlanish tendensiyalarini yoritadi. Unda iqtisodiy faollik oshgan sharoitda naqd pulga bo'lgan talab, banklar orqali naqd pullarning kirim va chiqimi, shuningdek naqd va naqd pulsiz to'lovlar o'rtasidagi nisbatdagi o'zgarishlar tahlil qilingan.

Sharhda aholining bank kartalaridan foydalanish faolligi, bankomatlar va kassalar orqali amalga oshirilgan naqd pul operatsiyalari, chet el valyutasini sotib olish va omonatlardan naqd pul yechish bilan bog'liq jarayonlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi va naqd pul muomalasini boshqarish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar yoritilgan.

Umuman olganda, sharh naqd pul muomalasi iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda barqaror boshqarilayotganini, bir vaqtning o'zida esa raqamli va naqd pulsiz to'lovlar ulushi izchil kengayib borayotganini ko'rsatadi.

---

**2026-yil yanvar-mart oylarida naqd pul muomalasini tashkil etishda asosiy e'tibor:**

banklarga kelib tushgan naqd pullar va naqd puldagi to'lovlar hajmidan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotda talabdan ortiqcha miqdorda naqd pullarni qaytarib olishga;

eski namunadagi banknotlarni muomaladan qisqartirish va pul belgilari sifat tarkibini yaxshilashga qaratildi.


**Naqd pul muomalasiga doir ko'rsatkichlar dinamikasi**

Banklarda naqd pul muomalasini erkinlashtirilishi, iqtisodiy o'sish faollashgani fonida iqtisodiyotda naqd pullarning banklar orqali aylanmasi doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi.

**2026-yil** I-chorakda umumiy pul tushumlari (naqd pul va terminal tushumlari) **316 trln** so'mni tashkil etib, **2025-yilga** nisbatan **35 foizga** oshdi.


Jumladan, banklarga umumiy pul tushumlarida terminal (shu jumladan, mobil ilovalar) orqali tushumlar ulushi **2025-yil** yanvar-mart oylaridagi **43 foizdan 2026-yil yanvar-mart** oylarida **47 foizga** o'sishi kuzatildi.

Savdo va xizmatlar sohasida terminal tushumlari (shu jumladan, mobil ilova orqali to'lovlar) salmog'i o'tgan yildagi **49 foizdan 51 foizga** yetdi.

**1-rasm: Umumiy pul tushumlari tarkibi va dinamikasi (trln so'mda)**


**2026-yil I-chorakda** banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi **330 trln** so'mni (naqd pul tushumlari – **166 trln** so'm, berilgan naqd pullar – **164 trln** so'm) tashkil etib, **2025-yil** mos davriga nisbatan **25 foizga** oshdi. Jumladan, banklarga naqd pul tushumlari o'tgan yilga nisbatan **34 trln** so'mga yoki **26 foizga** o'sdi.

Xususan, bank xizmatlaridan (omonatlar, kredit qaytarilishi, xorijiy valyutalarni sotishdan tushumlar) naqd pul tushumlari **18 trln** so'mga, savdo tushumlari **5 trln** so'mga va pullik xizmatlardan tushumlar **5 trln** so'mga ko'p bo'ldi.

**2-rasm: Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi (trln so'mda)**


**2026-yil** yanvar-mart oylarida bank kassalari (shu jumladan, bankomatlar)dan jami berilgan naqd pullar **2025-yil** mos davriga nisbatan **32 trln** so'mga yoki **24 foizga** oshdi.

Mazkur holat asosan bank kartalaridan naqd pul yechish hajmining **13 trln** so'mga, banklar tomonidan aholidan naqd chet el valyutasini sotib olish uchun berilgan naqd pullar hajmining **11 trln** so'mga hamda aholining omonat hisobvaraqlaridan naqd pul yechishi **6 trln** so'mga o'sishi hisobiga yuzaga keldi.

**3-rasm: Bank kassalari (shu jumladan, bankomatlar)dan berilgan naqd pullar va ularning yo'nalishlari bo'yicha tarkibiy dinamikasi (trln so'mda)**


Joriy yilning **I-choragida** bank kartalariga kiritilgan mablag'lar hajmi **2025-yilning** mos davriga nisbatan **1,3 barobarga** oshgan. Ushbu davrda bank kartalaridagi **71 trln** so'm mablag'lar naqdlashtirilgan bo'lib, bank kartalariga tushgan mablag'lardagi ulushi **17 foizni** tashkil qilib o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2 foiz** bandga kamaygan.

#### 4-rasm: Bank kartalariga kelib tushgan mablag'lar va ularni naqdlashtirish hajmlari dinamikasi (trln so'mda)



**2026-yilning 3 oyida** muomalaga chiqarilgan naqd pullar hajmi **2,6 trln** so'mga kamayishi kuzatildi. **2026-yil 1-aprel** holatiga naqd pullarning umumiy pul massasidagi ulushi **16,9 foizni** tashkil qilib o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,7 foiz** bandga pasaydi.

#### 5-rasm. Muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi dinamikasi




#### Muomaladagi naqd pullarning nominal qiymati bo'yicha tarkibi

Joriy yilning I-choragida muomaladan naqd pullarning qaytishi natijasida banknotlar umumiy soni **262 mln** donaga kamayib **2026-yil 1-aprel** holatiga **2 184 mln** donani tashkil qildi.


O'z navbatida, muomaladagi naqd pullar tarkibida ularning miqdori bo'yicha **200 000 so'mlik** banknotlar ulushi yil boshida – **28,5 foizdan 30,6 foizga** yetgan bo'lsa, **50 000 so'mlik** va **100 000 so'mlik** banknotlar ulushida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi.

**6-rasm: Muomalaga chiqarilgan banknotlar va tangalarning nominal qiymatlari bo'yicha ulushi (foizda)**



Naqd pullarning banklararo harakati **“Naqd pullarning elektron maydoni”** platformasi orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mazkur tizimning foydalanuvchilari **1 009 tani** tashkil etib, bir oyda o'rtacha **14 trln** so'mlik amaliyotlar bajarilgan.

**7-rasm: “Naqd pullarning elektron maydoni” axborot tizimi orqali aylanmalar dinamikasi**



© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026-yil

---

*Naqd pul muomalasini tashkil etish departamenti tomonidan tayyorlandi. O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:*

*E-mail: [Yarkulov@cbu.uz](mailto:Yarkulov@cbu.uz)*

*Tel.: (+998) 71 212-60-25*